

## HADIS ILMIDA “AMIR AL-MO‘MINIYN”

**Xojiqurbonova Shahrizoda Shuxrat qizi**

O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

Dinshunoslik yo‘nalishi(rus guruh)1-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

Imom Buxoriy tug‘ilgan Buxoro shahri va uni ilmga da’vat qilgan ota-onasi, ustozlari va ularning hayoti. Ilm o‘rganish yo‘lida qilgan mehnatlari va yozgan kitoblari haqida so‘z yuritamiz.

**Kalit so‘zlar:** Hadis, Islom, Buxoro, Al-jome’ as-sahih, Buxoriyning ustozlari tomonidan qilingan e’tiroflar va ilm o‘rganish maqsadida qilgan sayohatlari.

Imom al-Buxoriy azaldan ilm fan va madaniyat ravnaqida mashhur bo‘lgan Buxoro shahrida tavallud topgan. Ko‘plab muarrihlarning guvohlik berishlaricha, Buxoro azaldan Movarounnahrning eng qadimiy va go‘zal shaharlaridan biri bo‘lgan. Manbalarda zikr qilinishicha, shaharning o‘rab turgan devorlari o‘ttiz olti millga cho‘zilgan. Shaharning obod va ko‘rkamligi, uning benazir go‘zalligi xususida ko‘plab shoirlar va fozillar o‘zlarining nasriy va nazmiy asarlarida alohida ehtiros bilan tarannum etganlar. Otasi Ismoil o‘z davrining yetuk muhaddislaridan, Molik ibn Anasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo‘lib, tijorat ishlari bilan shug‘ullangan. Onasi taqvodor, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi volidasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (sav)ning hadislarini o‘rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar – al Doxiliy, Muhammad ibn Salom al Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf al Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o‘z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo‘lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga otlanishi mumkin edi.

Shuningdek imom al-Buxoriyning otasiga xos bo‘lgan yana birqancha asl insoniy fazilatlar va uning alohida xususiyatlari zikr etilib, bunday fazilatlar o‘sha davrdagi kamdan-kam kishilarda uchragani haqida ham qayd qilinadi. Imom al-Buxoriyning onasi ham taqvodor, diyonatli va har xil karomatlar sohibasi bo‘lgan. U el orasida Alloh taologa iltijo etib, doimo duolar o‘qib yuradigan pokiza ayol sifatida tanilgan edi. Ma’lumki, imom al-Buxoriy yoshligida ko‘zi jarohatlanib ko‘rish qobiliyati susaygan bo‘lib, har qancha urinmasin ham tabiblaruni davolay olmagandilar. Kunlardan bir kuni al-Buxoriyning onasi tushida Ibrohim alayhissalomni ko‘rganda u zoti sharif bu mushfiqa onaga qarab: "Ey volida! Sening duolaringning ko‘pligidan Alloh-taolo o‘g‘lingga to‘liq ko‘rish qobiliyatini qaytardi", - deb xitob qilganlar. Keyin u "Uyqumdan uyg‘onsam o‘g‘lim Muhammadning ko‘z nuri to‘liq qaytib tuzalib ketibdi",-degan rivoyat mavjuddir. Chunonchi, imom al-Buxoriyning xotirasi kuchli bo‘lganligi xususida ko‘pdan-ko‘p afsonaviy tarzda rivoyatlar qilinadi. Uning ustozlari Muhammad al-Buxoriyning yoshligidan Alloh-taolo ato qilgan noyob iqtidori va quvvai-hofizasini sezib, unga bir ovozdan tan berganlar. Yoshligidayoq uning haqida "g‘oyatda fozil inson bo‘ladi", "dovrug‘i el orasida doston zot bo‘lib chiqadi", deb aytgan bashoratlari tarix kitoblarida bitilgan. Ilm oshirish maqsadida al-Buxoriy juda ko‘plab olimlardan ta‘lim oladi. Nishopurlik al-Hakimning (1015-yilda vafot etgan) yozishicha, ustozlarining soni to‘qson talar atrofida bo‘lib, ular: Muhammad ibn Yusuf al-G‘aryobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy ibn Rohaviyh nomi bilan mashhur bo‘lgan Imom Is‘hoq ibn Ibrohim, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Madaniy va boshqalardir. Chunonchi, butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to‘plamining (as-sihoh as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar. Yana shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi Markaziy osiyolik bo‘lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj (206/819 – 261/874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (209/ 824 – 279/892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (202/817 – 275/880), Imom Ahmad

An-Naso'iy (215/830 – 303/915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja (209/824 – 273/886) kabi siymolardir. Shular ichidan “Hadis ilmida amir al-mo‘miniyn” degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan Imom al-Buxoriy alohida e‘tiborga molik buyuk olimdi. Ko‘pchilik uni hurmat qilgan, ammo ba‘zi hasadgo‘y, qora niyatli kishilar al-Buxoriyni ko‘rolmas edilar. Natijada hasadgo‘ylarning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan al-Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab, amir olimdan huzuriga kelib “Al-jome‘ as-sahih”, “At-ta’rix” kitoblarini o‘qib berishni talab qiladi. Lekin al-Buxoriy “Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo‘lsa, o‘zi izlasin. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni yashirmay uni toliblarga sarf qilgani uchun meni kechiradi”, degan javobni aytadi. Amirga javob yoqmay, fitnachi, bo‘htonkor shaxslarning gapiga kirib al-Buxoriyga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan keyin al-Buxoriy Samarqandga qarab yo‘l oladi va birmuncha muddat Xartang qishlog‘ida o‘z shogirdlari va qarindosh-urug‘larinikida yashagandan keyin og‘ir kasalga chalinib, hijriy 256 yil (melodiy 870 yil 1 sentyabr) 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Buxoriyning «Al-Jomi‘ as-sahih» («Ishonchli to‘plam») deb nomlangan 4 jild (juz) dan iborat hadislar to‘plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to‘plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. Asar bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shu jumladan o‘zbek tiliga ham tarjima qilinib, 1991—96 ylarda 4 jildda nashr etildi. Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo‘lgani "Al-jome‘ as-Sahih"dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo‘lgan ilmlarga oid bir qator o‘ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Ular orasidagi „Al-jome‘ as-sahih“ asari islom olamida Qur‘ondan keyingi eng muhim manba sifatida e‘zozlanuvchi manba hisoblanadi.

## **XULOSA**

Imom Buxoriy yuksak qobiliyat egasi bo‘lmish va hadis ilmining bizgacha yetkazilishida beminnat mehnat qilgan shaxsdir. Yoshligidan ilmga chanqoq bo‘lgan Buxoriyning ustozlari tomonidan qilingan e’tiroflar va ilm o‘rganish maqsadida qilgan sayohatlari taxsinga sazovirdir. Bunday fidokorlik, biz yoshlarga mukammal misol bo‘la oladi va shunday insonlar yana oramizdan chiqishiga ishonchim komil.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)**

1. Shamsiddin Zaxabiy “Tarixul islom”.
2. Isxoq Ibn Roxavayx “Tarix”.

